”O‘zkimyosanoat“ AJning 2023-yil barqaror rivojlanish bo‘yicha ilk hisoboti e’lon qilindi

// 30.09.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/report-2023

Hisobotda Jamiyatning atrof-muhit, ijtimoiy va korporativ boshqaruvga (ESG) bog‘liq yondashuvlari taqdim etilgan.

Ushbu hisobot Global Reporting Initiative (GRI) xalqaro standartlari asosida tayyorlangan bo‘lib, kompaniyaning barqaror rivojlanish, korporativ boshqaruv, atrof-muhit va ijtimoiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalarni o‘z ichiga oladi hamda kompaniyaning oshkoralik va javobgarlikka bo‘lgan intilishini aks ettiradi.

2023-yilgi asosiy natijalardan biri — 1 410,2 ming tonna mineral o‘g‘it ishlab chiqarilishi va kompaniya moliyaviy ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada yaxshilanishi bo‘ldi.

Jamiyat shuningdek, CO_2 chiqindilarini 407 194 tonnagacha kamaytirdi va ayni kunlarda dolzarb bo‘lgan masalalardam biri- suvdan foydalanishni 22%ga qisqartirishga erishildi .

Qolaversa, mahalliy jamoalarga ko‘mak berish va gender tengligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator tashabbuslar amalga oshirildi. Xususan, 2025-yilgacha rahbar ayollar ulushini 30%ga yetkazish maqsad qilingan.

Jamiyat qayta tiklanuvchi energiya manbalariga qaratilgan loyihalarga ham katta e’tibor qaratib, sarmoyalar kiritdi. Xorijiy sheriklar bilan birgalikda vodorod ishlab chiqarish va quyosh elektr stansiyalarini o‘rnatish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilishi boshlandi.

Bu Jamiyatning uzoq muddatli strategiyasining muhim qismi bo‘lib, uglerod izini kamaytirish va ishlab chiqarish jarayonlarida qayta tiklanadigan energiya ulushini oshirishga xizmat qiladi.

”O‘zkimyosanoat" AJ 2025-yilgacha bo‘lgan rivojlanish strategiyasini davom ettirib, mamlakat kimyo sanoatining raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan barqaror rivojlanish maqsadida izchil islohotlar olib bormoqda.

Hozirgi kunda ESG reytingini qo‘lga kiritish maqsadida S&P Global xalqaro reyting agentligi bilan muzokaralar olib borilmoqda.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati